

TIL - MILLATNING RUHI

Nuriddin Do'sanov

O'zbekiston Milliy Pedagogika universiteti dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15621534>

Annotatsiya. Til - bu oddiy aloqa vositasi emas. Til - xalqning ko'zgusi, millatning yuragi, uning ruhi, orzu-umidlari, g'ami va quvonchi mujassam bo'lgan muqaddas boylikdir.

Til - milliy o'zlik mezon. Maqolada ham millat ruhi tilning millatlararo muloqotdagi ahamiyati xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: til, millat, ma'naviyat, ma'naviy boylik, inson.

ЯЗЫК - ДУША НАЦИИ

Аннотация. Язык - это не просто средство общения. Язык - это зеркало народа, сердце нации, священное сокровище, олицетворяющее его дух, надежды, печали и радости. Язык - критерий национальной идентичности. В статье также рассматривается значение духа нации, языка в межнациональном общении.

Ключевые слова: язык, нация, духовность, духовное богатство, человек.

LANGUAGE IS THE SOUL OF A NATION

Abstract. Language is not a simple means of communication. Language is a mirror of the people, the heart of the nation, a sacred treasure that embodies its spirit, hopes, sorrows and joys. Language is a criterion of national identity. The article also discusses the importance of the spirit of the nation, the language in interethnic communication.

Keywords: language, nation, spirituality, spiritual wealth, human.

Har bir millat o'z tili orqali taniladi. Agar til yo'qolsa, u millatning o'zligi, tarixiy xotirasi, madaniyati ham xavf ostida qoladi. Shu bois, buyuk mutafakkir Abdulla Shu o'rinda Muxtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik. Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqolalarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizni sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin", - deya aytgan fikrlari til va madaniyatning o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liqligini yana bir karra isbotlaydi.

Avloniy bejiz aytmaganlar:

"Milliy til - millatning eng buyuk va muqaddas boyligidir."

Til - tarix va madaniyat xazinasi. Ajdodlarimiz o'z bilimlarini, tafakkurini, hayot tajribasini til orqali asarlar, maqollar, dostonlar shaklida avlodlarga yetkazgan. Bu madaniy xazina bizga ona tilimiz vositasida yetib kelgan. Shoir va adiblarimizning asarlari - bu xalqimiz ruhining ifodasi. Til - birlik va birdamlik timsoli. Bir millatning farzandlari bir tilda so'zlashganda, ular bir-birini tushunadi, yaqinlashadi, o'zini yagona xalq sifatida his qiladi. Til yuraklarni birlashtiradi, ruhni uyg'otadi, millatni mustahkam qiladi. Til - ruhiy-ma'naviy olamimiz aksidir. Insonning ichki dunyosi, fikri va his-tuyg'usi til orqali namoyon bo'ladi. Ona tilimizda aytilgan so'z, yozilgan she'r yoki doston qalbimizga juda chuqur ta'sir qiladi.

Til ruhni uygʻotadi, iftixor uygʻotadi. Bu ibora koʻpincha ona tilining millat hayotidagi maʼnaviy ahamiyatini tushuntirishda qoʻllaniladi.

Til insonning ichki dunyosini, qalbida kechayotgan tuygʻularni, orzu-umidlarini ifodalovchi eng kuchli vositadir. Har bir xalqning ruhiy-maʼnaviy boyligi aynan oʻz tilida mujassam. Til orqali:

Sevgi, izzat, gʻam, shukronalik, sabr kabi tuygʻular ifodalanadi.

Masalan, ona tilimizda aytilgan "jonim", "koʻnglim toʻldi", "koʻngil gʻubori", "bagʻrikenglik", "sabr-toqat" kabi iboralar boshqa tillarda bu darajada nozik va chuqur maʼno bera olmaydi. Ota-bobolarimizning dono fikrlari, hayotiy qarashlari avlodlarga yetkaziladi.

Maqollar, hikmatli soʻzlar, aforizmlar ruhiy-maʼnaviy tarbiyaning eng kuchli qurolidir:

“Koʻngil koʻngildan suv ichadi”,

“Soʻz qalb tarozisi”,

“Yaxshi soʻz - jon ozigʻi.”

Adabiyot, sanʼat va madaniyat orqali xalqning maʼnaviy dunyosi shakllanadi.

Alisher Navoiy, Furqat, Oybek, Erkin Vohidov kabi adiblarimiz oʻz asarlari orqali millatning ruhiy boyligini yaratganlar. Ularning asarlarida nafaqat soʻz sanʼati, balki xalqning orzusi, gʻam-gʻussasi, iymoni va maʼnaviy qadriyatlari yashaydi. Diniy va axloqiy qadriyatlar ham til orqali yetkaziladi.

Qurʻon oyatlari tarjimalari, hadisi shariflar, tasavvuf adabiyoti xalqimizning ruhiy-maʼnaviy dunyosini shakllantirgan.

Til nafaqat muloqot vositasi, balki ruhning soʻzdagi aksidir. Til orqali inson oʻz qalbini ochadi, jamiyat esa oʻz maʼnaviy qiyofasini yaratadi. Shuning uchun ona tilini ardoqlash - bu faqat grammatikani bilish emas, balki millatning ruhiy-maʼnaviy asosini qadrlash demakdir.

Tilga eʼtibor - millatga hurmat. Bugungi kunda har birimiz ona tilimizni sevimiz, ardoqlashimiz, uni toʻgʻri va goʻzal ishlatishga intilishimiz lozim. Tilimizning boyligini, shevasini, ohangini asrash - bu bizning kelajagimizni asrash demakdir.

Agar biz ona tilimizni qadrlasak, uni bolalarimizga sevidirsak, adabiyotimizni, tariximizni, shevani, urf-odatlarimizni til orqali oʻrgatsak - biz chin maʼnoda millatimiz ruhini saqlagan boʻlamiz.

Xulosa qilib aytganda:

Til - millatning oʻzligi, shaʼni, gʻururi va ruhi.

Til - bu bizning milliy merosimiz, uni asrash esa har birimizning muqaddas burchimizdir.

REFERENCES

1. Abdurahimovna, A. S. (2021, December). Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQSHdagi ayrim universitetlar misolida). In *Conferences*.
2. Rajabova, H. (2025). INTERPRETATION OF TIME AND SPACE IN SHORTS (CHRONOTOPE) (On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim "Yilon", "Maqar", Kholiyor Safarov "Honor and Life", "Wingless Birds", "The Saddest Joy"). *Modern Science and Research*, 4(3), 1332-1340. <https://ijmri.de/index.php/jmsi> volume 4, issue 3, 2025 7164.

3. RAJABOVA, H. (2025). EXISTENTIAL HERO IN THE STORY ANDHISMOTIVEOFLIVING WITH CREATURES (ON THE EXAMPLE OF THE STORY“MAQAR”BYSHUHRAT MATKARIM). News of the NUUz, 1(1.2. 1), 318-320.
4. Narimova, G. (2025). THE ESSENCE OF WRITTEN SPEECHINIMPROVINGLANGUAGE TEACHING ON THE BASIS OF APPROACHES.Modern Science andResearch,4(2), 40-45.
5. Egamova, S. J., & Narimova, G. A. (2021). Lexis features of relevant to ancient Turkiclanguage words in Alisher Navoi works.Asian Journal of Multidimensional Research(AJMR),10(2), 90-96.
6. Adilova, A. S. (2021). Corpora and corpus-based teaching Uzbek to foreigners.InternationalJournal of Multicultural and Multireligious Understanding (IJMMU), 8(4), 525-531.
7. Abdurahimovna, A. S. (2021, December). Integration of Linguistics and Medicine(ontheexample of some universities in the USA). In Conferences.
8. Egamova, Shokhida Jalilovna, and Gulnora Abdumannonovna Narimova. "Lexis features of relevant to ancient turkic language words in alisher navoi works." *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)* 10.2 (2021): 90-96.
9. Abdumannonovna, Narimova Gulnora. "Modern Types Of Communicative Linguistics." *European Scholar Journal* 4.5: 39-40.